



SOCIAL MECHANISMS OF THE FORMATION OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS AND AXIOLOGICAL WORLDVIEW

Dilnoza Innatovna Asadova

Tashkent State University of Economics

Senior Lecturer at the Department of Philosophy

dilnoza_asadova@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Historical consciousness, axiological worldview, identity, social mechanisms, value system, critical reflection, spiritual structure, Uzbekistan experience.

Received: 08.10.25

Accepted: 09.10.25

Published: 10.10.25

Abstract: This article analyzes the social mechanisms underlying the formation of historical consciousness and axiological worldview within the framework of contemporary social philosophy. These processes facilitate the construction of individual and collective identity, the development of value systems, and the interpretation of historical experience on both ontological and epistemological levels. From a philosophical-methodological perspective, historical consciousness is not merely a body of knowledge but a socio-cultural construct that enables critical reflection and strengthens identity through axiological interpretation. The axiological worldview, in turn, plays an active role in evaluating historical realities through cultural and ideological lenses. The case of Uzbekistan illustrates how the reconstruction of historical consciousness and the formation of value-oriented thinking constitute a complex, multi-layered social-ontological process implemented through the synergy of political, spiritual, and educational institutions.

TARIXIY ONG VA AKSIOLOGIK DUNYOQARASH SHAKLLANISHINING IJTIMOIY MEXANIZMLARI

Dilnoza Innatovna Asadova

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

“Falsafa” kafedrasi katta o‘qituvchisi

dilnoza_asadova@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tarixiy ong, aksiologik dunyoqarash, identitet, ijtimoiy mexanizmlar, qadriyatlar tizimi, tanqidiy refleksiya, ma'naviy struktura, O'zbekiston tajribasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishining ijtimoiy mexanizmlari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy kontekstda tahlil etiladi. Mazkur jarayonlar individ va jamiyatning o'zligini anglash, qadriyatlar tizimini shakllantirish, hamda tarixiy tajribaning ontologik va gnoseologik darajada idrok etilishiga zamin yaratadi. Falsafiy-metodologik yondashuv asosida tarixiy ong faqat bilimlar majmui emas, balki ularning aksiologik interpretatsiyasi orqali jamiyatda tanqidiy refleksiya va identitetning mustahkamlanishini ta'minlovchi ijtimoiy konstruktadir. Aksiologik dunyoqarash esa, qadriyatlar orqali tarixiy voqelikni baholash, uni madaniy va ideologik mezonlar orqali anglash jarayonida faol rol o'ynaydi. O'zbekiston tajribasi doirasida, tarixiy ongning qayta konstruksiyasi va qadriyatli tafakkurning shakllanishi siyosiy, ma'naviy va ta'limiy institutlar hamkorligida amalga oshayotgan ko'pqirrali ijtimoiy-ontologik jarayon sifatida tahlil qilinadi.

**СОЦИАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО
СОЗНАНИЯ И АКСИОЛОГИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ**

Дильноза Иннатовна Асадова

Ташкентский государственный экономический университет

Старший преподаватель кафедры философии

dilnoza_asadova@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Историческое сознание, аксиологическое мировоззрение, идентичность, социальные механизмы, система ценностей, критическая рефлексия, духовная структура, опыт Узбекистана.

Аннотация: В данной статье анализируются социальные механизмы формирования исторического сознания и аксиологического мировоззрения в контексте современной социальной философии. Эти процессы обеспечивают осмысление индивидуальной и коллективной идентичности, развитие системы ценностей и восприятие исторического опыта на онтологическом и гносеологическом уровнях. С философско-методологической точки зрения историческое сознание рассматривается

как не просто совокупность знаний, но и как социокультурный конструкт, обеспечивающий критическую рефлексию и укрепление идентичности посредством аксиологической интерпретации. Аксиологическое мировоззрение, в свою очередь, играет активную роль в оценке исторической реальности через призму ценностей, культурных и идеологических параметров. На примере Узбекистана процесс реконструкции исторического сознания и формирования ценностного мышления представлен как многоуровневый социально-онтологический процесс, реализуемый при взаимодействии политических, духовных и образовательных институтов.

Kirish. Tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishining ijtimoiy mexanizmlari zamonaviy ijtimoiy falsafa kontekstida murakkab gnoseologik, aksiologik va ontologik qatlamlarda tahlil qilinadigan ko'p qirrali ilmiy muammo bo'lib, u insonning o'zini anglash, jamiyatda o'z o'rnini topish va mavjudlikni ma'nolantirish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu masalani falsafiy nuqtai nazardan talqin etish, eng avvalo, insoniyat tarixiy tajribasining individual va kollektiv ongda aks etishi, hamda mazkur aks-sado orqali qadriyatlar tizimining shakllanish mexanizmlarini tahlil qilishni taqozo etadi. Identitetning falsafiy tushunchasi, ayniqsa, uning tarixiy va aksiologik kontekstlarda talqini, inson ijtimoiy mohiyatining tub mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Shu sababli, identitet, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash muammosi ijtimoiy falsafaning markaziy kategoriya va tushunchalari doirasida nazariy-metodologik asosda tadqiq etilishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi globallashtirish va madaniy diversifikatsiya sharoitida shaxsiy identitet va u bilan bog'liq qadriyatlar tizimi fragmentatsiyaga uchragan. Shu bois, identitet masalasi sotsiologumanitar fanlarning, ayniqsa ijtimoiy falsafaning ilmiy markazida turibdi. Identitet o'z mohiyatiga ko'ra, shaxsning o'ziga, boshqa guruhlariga, ijtimoiy institutlarga bo'lgan munosabati orqali shakllanadi. E. Erikson ta'riflaganidek, identitet – bu o'zini o'zi turg'un va yaxlit bir mavjudot sifatida his etish, hamda o'zini ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansub deb bilish holatidir [1;124–126]. Ushbu ta'rif identitetni ikki qatlamda anglashga imkon beradi: subyektiv (ichki) va obyektiv (ijtimoiy) darajada bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy identitetning shakllanishida tarixiy ong alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday identitet shakllanishi o'tmish haqidagi kollektiv tasavvurlar – ya'ni tarixiy ong bilan asoslanadi. Tarixiy ong bu yerda nafaqat bilimlar majmuasi, balki ularning

aksiologik interpretatsiyasi, ularni anglashdagi emotsional va semantik jihatlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu fikrni G. Breykvellning shaxsiy va ijtimoiy identitetni qarama-qarshi emas, balki integral birlikda ko'rishi tasdiqlaydi. Uning nazarida identitet o'z rivojlanishida qadriyatlar, motivlar va ma'nolar bilan boyiydi [2; 210–212].

Ijtimoiy mexanizmlar nuqtai nazaridan identitet shakllanishining to'rt darajali aksiologik modeli diqqatga sazovordir. M.A. Rensh tomonidan ishlab chiqilgan ushbu model kognitiv (bilish), affektiv (emotsional), konativ (faoliyatga oid) va qadriyatli (mazmunga yo'naltirilgan) komponentlarni o'z ichiga oladi. Kognitiv komponent shaxsning ijtimoiy voqelikdagi texnologik va ijtimoiy bilimlarni qadrlashi orqali identitetga asos soladi. Affektiv daraja esa shaxsning emotsional jihatdan guruhlariga qo'shilishi orqali unga sodiqlik hissi shakllanishini ta'minlaydi. Konativ jihat faoliyat orqali ifodalanib, shaxs o'zini ijtimoiy rol orqali namoyon qiladi. Nihoyat, qadriyatli bosqichda shaxs hayotining ma'naviy-mazmuniy asoslarini mustaqil anglaydi va ularni ichki konstrukt sifatida qabul qiladi [3; 75–78].

Tarixiy ongning shakllanishi, o'z navbatida, ijtimoiy institutlar, madaniyat, an'ana, til, din, ta'lim tizimi va siyosiy tuzilmalarning uzviy ta'siri ostida yuzaga chiqadi. Bu yerda tarixiy ong — bu ijtimoiy xotiraning qayta ishlab chiqilgan shakli bo'lib, u orqali shaxs yoki jamoa o'zining o'tmishdagi mavjudlik holatini hozirgi bilan bog'laydi. Mazkur ongda tarixiy voqeliklar nafaqat xronologik tartibda balki qadriyatlar prizmasi orqali aks ettiriladi. Shu bois, aksiologik dunyoqarash bu yerda tarixiy ongning semantik asosidir. D.A. Leontyevning fikricha, qadriyat bu — inson hayotining ma'naviy markazi bo'lib, u o'z mohiyatida transsubyektivdir, ya'ni individual va kollektiv ongda uyg'unlashgan [4;25–26]. Zamonaviy axborot jamiyatida virtual identitetlar, mass-media orqali shakllanuvchi shaxsiy identifikatsiya shakllari shaxsning o'z tarixiy kontekstini anglash imkoniyatini zaiflashtiradi. Shaxsning virtual makondagi mavjudligi, ko'pincha, real tarixiy xotira va qadriyatlar bilan emas, balki sun'iy stimullarga asoslangan tasvirlar bilan shakllanadi. Bu holat esa identitetning diffuziyalanishiga, shaxsning ma'naviy barqarorligining zaiflashuviga olib keladi. V.S. Malaxov ushbu holatni "identitetning noqulayligi" deb atab, zamonaviy inson o'zini tanlash imkoniyati ko'p bo'lgan, biroq ularni qadriyat asosida amalga oshira olmaydigan holatga tushib qolganini ta'kidlaydi [5;45–47].

Demakki, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishining ijtimoiy mexanizmlari quyidagi tarzda yakuniy xulosa qilishga asos beradi: birinchidan, bu jarayon tarixiy kontekstda shakllangan qadriyatlar tizimi orqali shaxsni ijtimoiy voqelikda joylashtiradi; ikkinchidan, u shaxsning o'zini anglash, qadriyatlarni ichkilashtirish, o'zini ijtimoiy guruhga mansub sifatida his qilish kabi bosqichli jarayonlar orqali amalga oshadi; uchinchidan esa, ushbu jarayonning asosiy determinantalari ijtimoiy institutlar, kommunikatsiya vositalari, madaniyat va tarixiy tajribaning

interpretatsiyasidir. Shu tariqa, identitet — bu doimiy yangilanuvchi, tarixiy sharoitlarga moslasha oluvchi, ammo baribir qadriyatlarga asoslangan axloqiy-falsafiy konstruktir.

Jamiyatning ma'naviy tiklanishi va o'ziga xosligini saqlab qolish jarayonida tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash o'zaro bog'liq, falsafiy nuqtai-nazardan tanqidiy qayta bahoga muhtoj bo'lgan murakkab ijtimoiy jarayonlarning tuhfasi sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy ong – bu insoniyatning jamiyatda shakllangan umumiy xotirasi bo'lib, u nafaqat o'tmish haqidagi bilimlarni, balki ularni ijtimoiy-psixologik va mafkuraviy tajriba orqali qayta ishlab, individual va jamoaviy ongga singdirish mexanizmidir. Bu jarayonning mag'zida, avvalo, insoniyatning o'ziga nisbatan va o'tmishga bo'lgan aksiologik munosabati mujassamdir [6; 16–26, 5–12].

Aksiologik dunyoqarash esa inson va jamiyatni harakatga keltiruvchi qadriyatlar majmuasidir. U nafaqat muqarrar an'analarni saqlab qolish, balki zamonaviylik, innovatsiya va global muammolarga javob bera oladigan ijtimoiy faol mexanizmlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy ong va qadriyatlar o'rtasidagi murakkab aloqadorlik – aksiologiyaning markaziy masalalaridan biri bo'lib, bu bog'liqlik ijtimoiy falsafada antropologiyaviy, gnoseologik va ontologik yondashuvlar bilan tadqiq etiladi [7; 45–58]. Bunday jarayonlarda faoliyat yurituvchi ijtimoiy mexanizmlar tubandagilarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, ta'lim va tarbiya tizimi – tarixiy ongni shakllantirishda eng samarali institut hisoblanadi. Bu institutlar orqali tarixiy bilimlar va milliy xotira tizimli ravishda individga uzatiladi. Ta'lim faqat bilim berish emas, balki aksiologik pozitsiya shakllantirish, o'tmishni qadrlash, kelajakni anglashga intilishni o'rgatuvchi mexanizmdir [8; 16–22].

Ikkinchidan, siyosiy-mafkuraviy ta'sir vositalari – davlat siyosati, ideologiya va ommaviy axborot vositalari tarixiy voqeliklarni qayta interpretatsiya qilish orqali jamiyat ongida muayyan aksiologik qarashlarni ilg'orlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, tarixiy voqealarni geroizatsiya yoki dramatizatsiya qilish orqali muayyan siyosiy maqsadlarga erishish aksiologiyada instrumentallashtirilgan yondashuv sifatida baholanadi [9; 56–66].

Uchinchidan, milliy ramzlar va madaniy meroslar – milliylik va aksiologik identifikatsiyaning muhim vositasidir. Masalan, tarixiy yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi, milliy bayramlar tarixi va qadriyatlarni vizual va emotsional asosda mustahkamlash orqali amal qiladi [10; 71–96].

To'rtinchidan, falsafiy-intellektual muhit – tarixiy ong va qadriyatlar munosabatini tanqidiy tahlil qilish imkonini beradi. Bu muhitda shubha tamoyili, tanqidiy ratsionalizm va postmodernistik yondashuvlar orqali tarixiy bilimlar haqqoniyligi sinovdan o'tkaziladi. Masalan, Qahhorovning ta'kidlashicha, shubha tamoyili tarixiy bilimning tekshirish, isbot va baholash kabi kognitiv jarayonlarida ratsional omil sifatida qatnashadi [11; 66–73].

Beshinchidan, yoshlar siyosati – tarixiy ongni qayta yaratish jarayonining markaziy sub’ekti sifatida ko’riladi. Yoshlarda milliy o’zlik, tarixga nisbatan shaxsiy munosabat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda tarixiy ong va aksiologiya o’zaro ta’sirchan tizimda amal qiladi [12; 108–120].

Ijtimoiy falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, ushbu mexanizmlar ontologik jihatdan bir-biri bilan bog’liq bo’lib, tarixiy ong faqat axborot emas, balki jamiyatning hayot tarzi, axloqiy me’yorlari, ijtimoiy institutlari bilan uzviy bog’liq ravishda shakllanadi. Bunda ijtimoiy ongda mavjud bo’lgan qator paradokslar – masalan, “o’tmishga sadoqat” va “yangi dunyoga intilish” o’rtasidagi ziddiyatlar ham aksiologik dunyoqarash orqali bartaraf etiladi.

Yakunlaydigan bo’lsak, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishining ijtimoiy mexanizmlari – faqatgina siyosiy yoki ta’limiy vositalar emas, balki ma’naviy-mafkuraviy jarayonlarni qamrab olgan ko’p qirrali, interdistsiplinar kompleksdir. Bu mexanizmlar zamonaviy jamiyatning rivojlanish manbai, ma’naviy barqarorlik kafolati va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi poydevor sifatida jamiyatning barcha qatlamlari uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash insonning ijtimoiy mavjudot sifatida o’z tarixiy mavjudligini, qadriyatli orientirlarini idrok etish jarayonidir. Bu tushunchalar nafaqat falsafiy-metodologik konseptlar sifatida, balki jamiyatning ma’naviy strukturasi tashkil etuvchi real ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo’ladi. Ularning shakllanishi, ayniqsa posttotalitar jamiyatlarda, tarixiy xotiraning qayta tuzilishi, madaniy identitetning yangilanishi, va milliy o’zlikni konstruksiyalash vositasiga aylanadi. O’zbekiston misolida bu jarayon mustaqillikdan so’ng ijtimoiy-falsafiy ong va amaliy siyosatning uzviy bog’liqligi doirasida amalga oshirilib kelmoqda.

Etik-falsafiy jihatdan tarixiy ong insonning zamonaviy holatini o’zining tarixiy ildizlari bilan bog’lovchi va kelajakni aks ettiruvchi reflektiv kompetensiyadir. I.I. Alesin bu borada tarixiy ongni “madaniyat fenomeni” sifatida baholab, uni insoniyat taraqqiyotining sivilizatsion indikatoriga aylantiradi [13;3].

Shu bilan birga, tarixiy ongning shakllanishida axloqiy determinantalarning ustuvorligi ta’kidlanib, bu ong faqat faktologik bilimlar emas, balki aksiyologik yondashuvlar asosida shakllanishi zarurligi ko’rsatiladi [14; 8]. Ya’ni, tarixni bilish emas, balki uni axloqiy interpretatsiya qilish — ijtimoiy refleksiya uchun poydevor hisoblanadi. Aksiologik dunyoqarash esa mazkur refleksiyaning semantik mezonidir. U, qadriyatlar tizimi orqali, tarixiy hodisalarga baho berish va ulardan ijtimoiy xulosa chiqarish vositasini shakllantiradi. Bu nuqtai nazardan tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash bir-biriga dialektik bog’liq. Z.R. Sadykova bu jarayonni sotsiokulturning kontekstdagi transformatsiyasi sifatida tahlil etib, tarixiy ong “mifologik, tarixiy-

badiiy, ilmiy shakllar” orqali avloddan-avlodga uzatilishini ko‘rsatadi [15; 13]. Bu esa, jamiyatning o‘z tarixiy tajribasiga qanday axloqiy qiymat berganiga bog‘liqdir.

O‘zbekiston sharoitida ushbu jarayonlar siyosiy-iqtisodiy transformatsiya fonida, tarixiy merosni ideallashtirish va selektiv tarixiy ongni shakllantirish vositalari orqali amalga oshirildi. Masalan, Amir Temur timsolida tarixiy ong qahramonlik, tartib va intizom qadriyatlariga asoslanib yangitdan tashkil etildi. Shu bilan birga, jadidlar harakati, mustamlaka davri repressiyasi va mustaqillik g‘oyasi bilan bog‘liq tarixiy narrativlar rasmiy siyosiy diskursda aks ettirildi. Biroq bu tarixiy ong, ko‘pincha, tanqidiy refleksiyadan yiroq, yodlovchi va idealizatsiyalovchi xususiyatga ega bo‘ldi. Bunday yondashuvning ijtimoiy-falsafiy oqibatlari haqida M.N. Chistanov “tarixiy ongni sotsial ontologiyaning muhim shakli” sifatida ko‘rib, u orqali jamiyat o‘zini vaqtli kontekstdagi mavjudlik shakli sifatida idrok etishini ta’kidlaydi [16; 110]. Shu sababli, tarixiy ongning selektivligi va aksiologik yondashuvlardagi monoxromlik ijtimoiy transformatsiyaning murakkab shakllarini tushunishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Yana bir muhim jihat – bu tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashni uzatishning ijtimoiy mexanizmlaridir. O‘zbekiston misolida ularni quyidagicha tavsiflash mumkin: (1) ta’lim tizimi orqali tarixiy narrativni barqaror uzatish, (2) ommaviy axborot vositalari orqali qahramonlashtirilgan tarixiy obrazlarni yaratish, (3) bayramlar, haykallar, muzeylar orqali vizual va emotsional yodga asoslangan ongni shakllantirish, (4) milliy davlat mafkurasining rasmiy diskursida tarixiy ong va qadriyatlar tizimining markazlashtirilgan interpretatsiyasi.

Yuqoridagi mexanizmlarning barchasi ijtimoiy konstruksiyalash texnologiyasi bo‘lib, ular orqali tarix “yodga aylantiriladi” va tarixiy tajriba hozirgi zamonning ideologik ehtiyojlariga bo‘ysundiriladi. A.V. Leopa bu borada ogohlantiradi: “tarixiy ong ijtimoiy barqarorlik faktori sifatida xizmat qilsa-da, u faqat tanqidiy kompetensiya bilan birgalikda mustahkamlanadi” [17; 28]. Shunday yondashuv mavjud bo‘lmasa, tarixiy ong totalitar selektivlik xavfini tug‘diradi va jamiyat o‘z tarixini mukammal tahlil qila olmay qoladi. Tanqidiy falsafa pozitsiyasidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash ijtimoiy mavjudlikning murakkab strukturasi bo‘lib, ular faqat bilim emas, balki qadriyat, ong, tafakkur va sotsial reallik o‘zaro aloqasining mahsulidir. Bu holatda ularni shakllantirishning mexanizmlari ham doimiy qayta tahlilga muhtoj bo‘ladi. Aks holda, tarix yodga aylanishi, ong esa – turmushning axloqiy refleksiyasi emas, balki ideologik replikatsiya vositasiga aylanishi mumkin.

Tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash har qanday jamiyatning ijtimoiy-falsafiy strukturasi o‘ziga xos markaziy bo‘g‘in bo‘lib, u nafaqat o‘tmishga munosabatni, balki jamiyatning hozirgi holati va istiqbolini belgilovchi poydevor funksiyasini ham bajaradi. Ayniqsa, mustamlakachilik merosidan xalos bo‘lib, milliy davlatchilikni mustahkamlash bosqichiga kirgan O‘zbekiston kabi davlatlar uchun tarixiy ong va qadriyatli tafakkur shakllanishining ijtimoiy

mexanizmlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Tarixiy ong, avvalo, jamiyatning o'z o'tmishiga bo'lgan yondashuvini anglatadi. Bu yondashuv oddiy eslab qolish yoki xotiraning tasodifiy shakli emas, balki murakkab ijtimoiy-madaniy jarayon, u millatning mavjudligiga ontologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy ongda jamiyatning o'z-o'zini anglash darajasi, o'z identiteti, avlodlararo bog'liqlik va ma'naviy barqarorlik asoslanadi [18; 11].

O'zbekiston misolida tarixiy ong shakllanishi mustamlakachilik va totalitarizm davrida kuchli deformatsiyaga uchragan. Bu davrda tarixiy voqeliklar biryoqlama, ideologik filtdan o'tgan holda talqin qilinar, milliy qahramonlar xorlanar, o'zbek xalqining sivilizatsion yutuqlari inkor etilar edi [19; 7-8].

Shu sababli ham mustaqillik yillarida tarixiy ongni tiklash faqat tarixshunoslik emas, balki ijtimoiy-falsafiy masalaga aylandi. Chunki bu ongni tiklash orqali jamiyat o'zini anglab, o'z istiqbol yo'lini aniq belgilab oladi. Bunda aksiologik dunyoqarash asosiy vosita sifatida maydonga chiqadi. Qadriyatlar tizimi har qanday jamiyat uchun meyoriy mezonlar majmuasidir. Aksiologik dunyoqarash, ya'ni qadriyatlarga asoslangan tafakkur, jamiyatda nima yaxshi va nima yomon, nima ustuvor va nima ikkilamchi ekanligini belgilaydi. O'zbekiston jamiyati mustaqillikdan keyin qadriyatlarning yangilanish jarayonini boshdan kechirdi. Bu yangilanish ikki vektor asosida boradi: milliy qadriyatlarni qayta tiklash va ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish [20; 18].

Tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishi o'z-o'zidan, spontan tarzda kechmaydi. Bu jarayonni ta'minlovchi ijtimoiy mexanizmlar mavjud. Ular orasida, avvalo, ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Ta'lim tizimi orqali tarixiy xotira va qadriyatlar yosh avlod ongiga singdiriladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy identitetning mustahkamlanishiga olib keladi [21; 4-5].

Shu bilan birga, davlat siyosati va ommaviy axborot vositalari ham ushbu jarayonning muhim bo'g'inlaridan biridir. O'zbekiston Prezidentining asarlari va nutqlarida qadriyatlar masalasiga berilayotgan e'tibor aynan aksiologik dunyoqarashni shakllantirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi [22; 24-26]. Tahlil shuni ko'rsatadiki, tarixiy ong va qadriyatli tafakkur ijtimoiy ongning passiv shakllari emas, balki faol konstituentlari hisoblanadi. Ular jamiyat tomonidan faollik bilan yaratiladi, ideologik emas, aksiologik yondashuv asosida shakllantiriladi. Shu nuqtai nazardan, jamiyat taraqqiyotida har qanday islohotlar faqat moddiy o'zgarishlar bilan emas, balki qadriyatlar tizimidagi yangilanish orqali barqarorlikka erishadi. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqilligi nafaqat siyosiy, balki aksiologik inqilob sifatida talqin qilinmog'i lozimdir [23; 17-20]. Shuni ham qayd etish kerakki, aksiologik dunyoqarash faqat ijobiy qadriyatlarni tan olish emas, balki qadriyatlar to'qnashuvi va ziddiyatlarini ham anglash demakdir. Ayniqsa, globallashuv sharoitida g'arbona qadriyatlar bilan sharqona qadriyatlar o'rtasida ziddiyatli

tendensiyalar kuchaymoqda. O'zbekiston bu borada o'zining tarixiy-falsafiy tajribasi va madaniy mustaqilligi asosida uyg'un yechimlar topishga harakat qilmoqda [24; 3-5].

Tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishining ijtimoiy mexanizmlari jamiyatning ma'naviy tiklanishida hal qiluvchi omildir. Bu jarayonda ta'lim, siyosiy irodaning yo'naltiruvchilik roli, ilmiy-tadqiqotlar va ommaviy madaniyat birgalikda ishlaydigan tizimli harakatni tashkil etadi. O'zbekiston misolida bu mexanizmlar harakati jamiyatning o'z tarixiy ildizlariga qaytishi, qadriyatlar asosida milliy o'zlikni mustahkamlashi va shu asosda kelajakni bunyod etishga xizmat qilmoqda.

Tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishining ijtimoiy mexanizmlari murakkab ijtimoiy-ontologik va gnoseologik jarayonlar majmuasidir. Bu jarayonlarning mazmun-mohiyatini anglash uchun tarixiy voqelikni faqat xronologiya asosida emas, balki ma'naviy-simvolik, aksiologik va sotsiogenetik jarayon sifatida tahlil etish zarur. Jamiyatning o'z tarixi bilan bog'liq refleksiv munosabati – tarixiy ong shakllanishi – qadriyatlar tizimining paydo bo'lishi va mustahkamlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u ijtimoiy tuzum, siyosiy holat, ma'naviy muhit va axborot makoni ta'sirida shakllanadi. Bu kontekstda O'zbekiston misoli o'ta muhim va o'rganishga arzidir, chunki u postsovet jamiyatining modernizatsiyasida tarixiy meros va milliy qadriyatlarni qayta tiklash tajribasini namoyon etmoqda.

Mustaqillikka erishganidan so'ng, O'zbekistonda milliy tarixni qayta yozish, uning mazmun-mohiyatini yangi ma'naviy paradigmada sharhlashga qaratilgan harakatlar boshlandi. Bu jarayonda tarixiy ongni yangilash, uning aksiologik asoslarini qayta ko'rib chiqish, milliy o'zlik va dunyoqarashni shakllantirish markaziy vazifalardan biriga aylandi. Ilmiy-akademik nuqtai nazardan, bu jarayon faqat davlat siyosati yoki maorif tizimi orqali amalga oshirilmay, balki umumma'naviy makondagi g'oyaviy-simvolik mexanizmlar vositasida, ya'ni yodgorliklar tiklanishi, tarixiy shaxslar taqdimoti, madaniy merosni qayta baholash orqali amalga oshirildi [25; 32-36].

O'zbekistondagi ijtimoiy o'zgarish jarayonida tarixiy ong shakllanishining markaziy mexanizmi sifatida ta'lim tizimini ko'rsatish mumkin. Ayniqsa, tarix fanining darsliklari, umumta'lim dasturlari va ulardagi idoraviy yondashuv, tarixni milliy g'oya nuqtai nazaridan talqin qilishga qaratiladi. Ta'lim muassasalari orqali shakllanadigan tarixiy ong ko'pincha normativ-mafkuraviy xarakterga ega bo'lib, u amaliy aksiologiyaning ideologik translyatori vazifasini bajaradi. Bu jihatda tarixiy ongning davlatga bog'liq shakllanishi tarixiy voqelikning plyuralistik sharhini cheklaydi va alternativ nuqtai nazarlarni chetga chiqaradi [26; 45-49].

Aksiologik dunyoqarash esa, o'z navbatida, tarixiy ong orqali qonunlashtiriladigan qadriyatlar orqali shakllanadi. O'zbekistonda "vatanparvarlik", "ma'naviyat", "milliy g'urur", "tarixiy adolat" kabi tushunchalar ommaviy axborot vositalari, adabiyot, teatr va madaniy tadbirlar

orqali jamiyat ongida qadriyat sifatida mustahkamlanadi. Bu qadriyatlar idoraviy-simvolik darajada tarixiy ongni ma'lum manfaatlar atrofida markazlashtirishga xizmat qiladi. Bu borada Karimov I.A. asarlarida ta'kidlanganidek, tarixning ma'naviy qudrati millatni birlashtiruvchi ma'naviy poydevor sifatida qaraladi [27; 17-19].

Shu bilan birga, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishining jamiyat ichidagi ichki ko'pqirrali mexanizmlari ham mavjud. Masalan, tarixiy xotiraning yoshlar orasida qanday shaklda translyatsiya qilinayotgani, jamoaviy xotirani belgilaydigan ramzlar – yodgorliklar, bayramlar, afsonaviy shaxslar, tarixiy fasllar – qaysi manba orqali va qanday uslubda joriy etilayotgani muhim ilmiy masala sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonda 9 may – Xotira va qadrlash kuni, 1 sentabr – Mustaqillik kuni kabi bayramlar faqat tarixiy sana emas, balki ijtimoiy ongda muayyan aksiologik konstruksiyani shakllantiruvchi simbolik mexanizm sifatida ham faoliyat ko'rsatadi [28; 74-76]. Shuningdek, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashni shakllantiradigan yana bir omil — madaniy meros ob'ektlarining qayta tiklanishi va ular orqali tarixiy mohiyatni targ'ib qilishdir. Misol sifatida, Amir Temur va Temuriylar sulolasiga munosabatni qayta ko'rib chiqish, ularni milliy qahramon sifatida jamoaviy ongda tiklash jarayoni O'zbekistonda tarixiy ongni mobillashtiruvchi mexanizm sifatida xizmat qildi. Bu jarayon nafaqat ma'naviy merosni tiklash, balki muayyan ijtimoiy ong modelini shakllantirishga ham xizmat qiladi [29; 110-115]. Shu bilan bir qatorda, tarixiy ongning shakllanishidagi potentsial xatarlar ham mavjud. Jumladan, tarixiy voqealarning ideologik interpretatsiyasi, tarixiy haqiqatning institutsional kuchlar ta'sirida ta'riflanishi va bir xillilashtirilgan tarixiy narrativni yuzaga keltirishi, ijtimoiy ongda tanqidiy refleksiyaning susaytirishi mumkin. Bu esa tarixiy ongning uzluksiz va ko'pqirrali rivojlanishini cheklaydi. Mazkur holat gnoseologik nuqtai nazardan tarixiy haqiqatning sub'ektiv va ob'ektiv jihatlar o'rtasidagi muvozanatni buzilishiga sabab bo'ladi. Bu muammo, jumladan, P. Rikyor va Y. Xintikka kabi g'oyaparast falsafa namoyandalari tomonidan tarixiy ma'noga bag'ishlangan falsafiy tahlillarda qayd etilgan [30; 127-130].

Xulosa. O'zbekiston misolida tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishining ijtimoiy mexanizmlari kompleks, ko'p qavatli va o'zaro bog'liq jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda ta'lim, davlat siyosati, ommaviy madaniyat, media, falsafa va tarixshunoslik o'zaro ta'sirchanlik asosida ishtirok etadi. Tarixiy ong — jamiyatning o'z o'tmishini qanday anglashidan kelib chiqqan holda kelajakni qanday qurishini belgilaydigan asosiy ma'naviy-falsafiy konstrukt hisoblanadi. Uni faqat normativ ong emas, balki tanqidiy, inklyuziv va plyuralistik yondashuvlar asosida tahlil qilish jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андреева, Г.М., Богомолова, Н.Н., Петровская, Л.А. Зарубежная социальная психология XX столетия: Теоретические подходы. — М.: Аспект Пресс, 2001. — 248 с. — С. 124–126.
2. Брейквелл, Г.М. Методологические следствия интеграции парадигм (к проблеме изучения социальных представлений) // Социальные и гуманитарные науки: отечественная и зарубежная литература. Сер. 11: Социология. — 1996. — С. 208–218.
3. Реньш, М.А. Аксиология профессиональной идентичности: монография. — Екатеринбург: УрГУ, 2010. — 142 с. — С. 75–78.
4. Леонтьев, Д.А. Ценность как междисциплинарное понятие: опыт многомерной реконструкции // Вопросы философии. — 1996. — № 5. — С. 25–26.
5. Малахов, В.С. Неудобства с идентичностью // Вопросы философии. — 1998. — № 2. — С. 43–53.
6. Қаҳҳоров П.Х. (2021). Тарихий билимлар ривожда шубҳа тамойилининг илмий-концептуал аҳамияти. Самарқанд: СамДУ. — 16–73 бетлар. Меликова М.Н. (2019). Ўзбекистон ёшларининг тарихий онги (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Самарқанд: СамДУ. — 5–22 бетлар.
7. Мирахмедов Ж.М. (2021). Ўзбекистоннинг миллий-маънавий хавфсизлик стратегиясини таъминлашда тарихий онгнинг аҳамияти. Наманган: ҚДПИ. — 45–120 бетлар.
8. Меликова М.Н. (2019). Ўзбекистон ёшларининг тарихий онги (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Самарқанд: СамДУ. — 5–22 бетлар.
9. Қаҳҳоров П.Х. (2021). Тарихий билимлар ривожда шубҳа тамойилининг илмий-концептуал аҳамияти. Самарқанд: СамДУ. — 16–73 бетлар.
10. Мирахмедов Ж.М. (2021). Ўзбекистоннинг миллий-маънавий хавфсизлик стратегиясини таъминлашда тарихий онгнинг аҳамияти. Наманган: ҚДПИ. — 45–120 бетлар.
11. Қаҳҳоров П.Х. (2021). Тарихий билимлар ривожда шубҳа тамойилининг илмий-концептуал аҳамияти. Самарқанд: СамДУ. — 16–73 бетлар.
12. Мирахмедов Ж.М. (2021). Ўзбекистоннинг миллий-маънавий хавфсизлик стратегиясини таъминлашда тарихий онгнинг аҳамияти. Наманган: ҚДПИ. — 45–120 бетлар.
13. Алесин И.И. Нравственные основания исторического сознания: этико-философский анализ: дис. ... канд. филос. наук: 09.00.05. — Воронеж: ВГУ, 2016. — 179 с. — С. 1, 3, 8.
14. Алесин И.И. Нравственные основания исторического сознания: этико-философский анализ: дис. ... канд. филос. наук: 09.00.05. — Воронеж: ВГУ, 2016. — 179 с. — С. 1, 3, 8.

15. Садыкова З.Р. Трансформация социокультурных ценностей в контексте исторического сознания: дис. ... канд. филос. наук: 09.00.11. – Уфа: БашГУ, 2015. – 161 с. – С. 13, 19.
16. Чистанов М.Н. Историческое сознание как проблема социальной онтологии: дис. ... д-ра филос. наук: 09.00.11. – Новосибирск: Ин-т философии и права СО РАН, 2010. – 261 с. – С. 109–110.
17. Леопа А.В. Историческое сознание как фактор социальной стабильности в условиях глобального кризиса: дис. ... д-ра филос. наук: 09.00.11. – Красноярск: СФУ, 2014. – 311 с. – С. 28.
18. Назаров Қ. (2011). Қадриятлар фалсафаси. Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети. – Б. 11.
19. Туленов Ж., Туленова К. (2007). Қадриятлар фалсафаси. Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ. – Б. 7–8.
20. Назаров Қ. (2012). Қадриятлар фалсафаси. Фан дастури. Тошкент. – Б. 18.
21. Қадриятшунослик (2019). Ўқув дастури. Мирзо Улуғбек номидаги ЎзМУ. – Б. 4–5.
22. Назаров Қ. (2012). Қадриятлар фалсафаси. Тошкент. – Б. 24–26.
23. Назаров Қ. (2011). Қадриятлар фалсафаси. Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети. – Б. 11.
24. Қадриятлар тўқнашуви (2015). – Б. 3–5.
25. Савельева Л.М., Полетаев А.В. История — новая социогуманитарная наука. — М.: Наука, 2004. — 312 б. — Б. 32–36.
26. Гобозов И.А. Философия истории. — М.: Логос, 2000. — 189 б. — Б. 45–49.
27. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. — Т.: Маънавият, 2008. — 180 б. — Б. 17–19.
28. Тиллаев А. Маданий мерос ва миллий қадриятлар. — Т.: Фан, 2012. — 140 б. — Б. 74–76.
29. Кром М.М. Историческое знание: введение в историческую науку. — СПб.: Лань, 2005. — 256 б. — Б. 110–115.
30. Рикёр П. Время и рассказ. — М.: Академический проект, 2004. — 320 б. — Б. 88–92.; Хинтиikka Я. Познание и действительность. — М.: Логос, 2002. — 248 б. — Б. 127–130.